



NORASMIY TARJIMA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI VA
ME‘YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

**OIV/OITSGA TIBBIY TEKSHIRUVDAN O‘TKAZISH VA OIV/OITS
BILAN KASALLANGAN BEMORLARGA TIBBIY YORDAM
KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA SANITARIYA
QOIDALARI VA NORMALARI**

**O‘zbekiston Respublikasi
0187-05 sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2005

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur sanitariya qoidalari va normalari “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) profilaktikasi to‘g‘risida”gi va “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida ishlab chiqilgan.

2. Ushbu SanQvaNda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

OIV - odamning immunitet tanqisligi virusi;

OIV infeksiyasi - odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan o‘ta xavfli yuqumli kasallik;

OIVni yuqtirganlar - odamning immunitet tanqisligi virusini yuqtirib olgan shaxslar;

OITS - orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi, OIV infeksiyasining terminal bosqichi;

ixtiyoriy tekshiruv - shaxslarni to‘liq ma‘lumot asosida, o‘z xohishiga ko‘ra tekshirish;

anonim tekshiruv - shaxslarni ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etmasdan tekshirish;

maxfiy tekshiruv - natijalari faqat tekshiriluvchining o‘ziga va unga bevosita yordam ko‘rsatayotgan tibbiyot xodimlariga ma‘lum bo‘ladigan tekshiruv;

majburiy tibbiy ko‘rik - tekshiriluvchining o‘z faoliyatini davom ettirishi sharti sifatida, to‘liq ma‘lumot asosida uning roziligi bilan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan ko‘rik (qon va boshqa biologik suyuqliklar, a‘zolar va to‘qimalar donorlari);

majburiy tekshiruvdan o‘tkazish – tekshiriluvchining roziligi olinganidan qat’i nazar, vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organning belgilangan tartibda berilgan qarori asosida OIVga nisbatan majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishdir;

to‘liq ma‘lumot asosida tekshiruvdan o‘tkazish – tekshiriluvchi shaxs test oldi maslahati davomida OIVga tekshiruvdan o‘tishning barcha oqibatlari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot olganidan keyingina o‘tkaziladigan OIVga nisbatan tekshiruvdir;

maslahat berish – maslahat oluvchi va maslahatchi o‘rtasidagi maxfiy muloqot bo‘lib, tekshiruvning vazifa va sabablarini muhokama qilish, maslahat oluvchining xulq-atvor xususiyatlari bilan bog‘liq OIV infeksiyasini yuqtirish xavfi darajasini baholashni maqsad qiladi;

3. Mazkur qoidalar va me‘yorlar OIVga tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish hamda OIV/OITS bilan kasallangan bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi.

4. OIVga tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish OITSGa qarshi kurash davlat xizmatida faoliyat yurituvchi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

5. OIV/OITS bilan kasallangan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish va ularni parvarishlashni tashkil etish sog'liqni saqlashning davlat sektorida faoliyat yurituvchi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

6. Aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularga tibbiy yordam ko'rsatish ixtiyoriy hamda maxfiy tarzda amalga oshiriladi.

7. OIVga ixtiyoriy ravishda tekshiruvdan o'tish istagida bo'lgan shaxslarga malakali test oldi va testdan keyingi maslahatlar beriladi.

8. Immunobloting usuli yoki boshqa yuqori sezgir usullar bilan tasdiqlangan, OIV infeksiyasini yuqtirgan bemorlarga maxfiy tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish maqsadida ular raqamli belgi - shifr bilan belgilanadi.

9. Testdan keyingi maslahat berishni, shuningdek, profilaktika tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish uchun Immunobloting usuli bilan tasdiqlangan, OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar OITSGa qarshi kurash markazlariga "xizmat doirasida foydalanish uchun" grifi ostida yuboriladi.

10. OIV infeksiyasini yuqtirgan shaxslar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot muassasalarining rahbarlari va tibbiyot xodimlari tibbiy yordamni tashkil etishda va ko'rsatishda bemorlar shaxsining maxfiyligi va anonimligiga rioya etishlari shart.

Tibbiy yordam ko'rsatish va profilaktika tadbirlari ixtiyoriylik asosida, shifokor sirini saqlagan, shaxsni oshkor etmagan, insonparvarlarcha munosabatda bo'lgan va inson huquqlariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

11. Tashxisi tasdiqlangan barcha bemorlar bilan testdan keyingi maslahat o'tkaziladi va ular "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tanishtiriladi hamda ulardan infeksiyani boshqa shaxslarga yuqtirmaslik to'g'risida ixtiyoriy ravishda rozilik olinadi.

12. OIVga topshirilgan IFA tahlili ijobiy chiqqan shaxslar, OIV infeksiyasini yuqtirganlar, OIV/OITSGa chalingan bemorning jinsiy va parenteral sheriklari hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining direktiv hujjatlarida belgilangan boshqa shaxslar umrbod har qanday donorlikdan (qon, a'zolar, to'qimalar, biologik suyuqliklar va h.k.) chetlatiladi.

13. IFA va Immunobloting, shuningdek, boshqa yuqori sezgir tahlil usullarining natijalari, qanday bo'lishidan qat'i nazar, shifokor siridir. OIV infeksiyasi bo'yicha tahlil natijasi ijobiy chiqqani haqida shaxsning yashash, ishlash va o'qish joyiga, shuningdek, harbiy xizmatni o'tash yoki ozodlikdan mahrum etish joyiga xabar berish qat'iy taqiqlanadi.

14. Vazirliklar, idoralar, davlat va nodavlat tashkilotlari, tibbiyot va boshqa muassasalarning rahbarlari va mutaxassislariga OIV infeksiyasini yuqtirgan

xodimlarning shaxsini oshkor qilish, ularni ishdan bo'shatish va kamsitish qat'iyan man etiladi.

15. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar OIVga laboratoriya tahlilini ixtiyoriy va erkin topshirishlari mumkin. Maxfiylik va anonimlik kafolatlanadi.

16. Chet el fuqarolarida OIV/OITS aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilangan tartibda choralar ko'riladi.

2-bob. OIV infeksiyasini yuqtirganlikni aniqlash bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tkazish qoidalari

17. OIVga tibbiy ko'rikdan o'tkazishdan maqsadlar quyidagilardir:
gemotransfuziya va transplantatsiya xavfsizligini ta'minlash
epidemiologik monitoring olib borish: OIV infeksiyasi tarqalish darajasini, epidemiyani prognoz qilish uchun aholining ayrim guruhlari orasida kasallanish ko'rsatkichini baholash hamda profilaktika dasturlarini birinchi navbatda taqdim etishga muhtoj bo'lgan guruhlarni aniqlash.

OIV infeksiyasi tashxisini qo'yish.

18. Respublikada OIVga quyidagi tekshiruvlar o'tkaziladi:

ixtiyoriy;

majburiy;

majburiy tartibda.

19. Ixtiyoriy tekshiruv:

Quyidagi maqsadli guruhlar va aholining boshqa toifalari testgacha maslahat olish huquqiga ega bo'lib, ixtiyoriy tibbiy ko'rikdan o'tishlari mumkin va ularning maxfiyligi kafolatlanadi:

OIV yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar:

giyohvand moddalarni inyeksiya yo'li bilan iste'mol qiluvchi shaxslar;

gomo va biseksuallar;

tartibsiz jinsiy hayot kechiruvchi shaxslar, fohishalar;

tergov hibsonalariga, qabul qilish-taqsimlash inshootlariga joylashtirilayotgan shaxslar, shuningdek, muayyan yashash va ish joyiga ega bo'lmagan shaxslar;

jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalarga chalinganlar.

Klinik ko'rsatmalarga ko'ra:

bir oydan ortiq isitmalayotgan bemorlar;

bir oydan ortiq davom etayotgan diareyasi (ich ketishi) bo'lgan bemorlar;

tana vaznini sababsiz 10 foiz va undan ko'proq yo'qotgan shaxslar;

uch oydan ortiq davom etayotgan limfadenopatiyasi bo'lgan bemorlar;

surunkali va qaytalanuvchi pnevmoniyasi bo'lgan yoki pnevmoniyadan samarasiz davolanagan bemorlar;

reproduktiv tizimining surunkali yallig'lanish kasalliklari bo'lgan ayollar (shu jumladan homilador ayollar);

og'iz bo'shlig'ining virusli va zamburug'li kasalliklari hamda tilning tukli leykoplakiyasi;

immuniteti tanqis shaxslar (t-xelperlar sonining kamayishi);

OIV/OITSGa o'xshash belgilarga ega, lekin tashxisi to'liq aniqlanmagan kasalliklar.

qon, to'qima, a'zolar va urug'lik suyuqligi retsipyentlari.

OITS indikator kasalliklari:

traxeya, bronxlar yoki o'pka kandidozi;

qizilo'ngach kandidozi;

bachadon bo'ynining invaziv saratoni;

koksidioidomikoz (disseminatsiyalangan yoki o'pkadan tashqari);

o'pkadan tashqari kriptokokkoz (yevropa blastomikoz);

bir oydan ortiq davom etadigan surunkali ichak kriptosporidiozi;

sitomegalovirus infeksiyalari (jigar, taloq va limfa tugunlari zararlanishi bundan mustasno);

sitomegalovirusli retinit (ko'rish qobiliyatining yo'qolishi bilan kechadigan);

OIV ta'siridan kelib chiqqan ensefalopatiya;

oddiy herpes: bir oydan ortiq bitmaydigan surunkali yaralar, bronxit, pnevmoniya va ezofagit;

gistoplazmoz (disseminatsiyalangan yoki o'pkadan tashqari);

bir oydan ortiq davom etadigan surunkali ichak izosporozi;

kaposhi sarkomasi;

immunoblastik sarkoma;

berkitt limfomasi;

miya limfomasi (birlamchi);

14 yoshgacha bo'lgan bolalarda limfoid interstitsial pnevmoniya yoki o'pka limfoid giperplaziyasi;

mycobacterium avium-intracellulare, m. kansasii qo'zg'atadigan disseminatsiyalangan va o'pkadan tashqari mikobakteriozlar;

o'pka tuberkulyozi;

o'pkadan tashqari tuberkulyoz;

pnevmonsist pnevmoniya;

qaytalanuvchi pnevmoniyalar (12 oy ichida 2 marta va undan ko'p);

avj oluvchi ko'p o'choqli leykoensefalopatiya;

miya toksoplazmozi;

salmonellyozli septitsemiya;

OIV ta'siri natijasida kelib chiqqan holdan toyish sindromi.

Epidemiologik ko'rsatkichlar bo'yicha quyidagilar tekshiruvdan o'tkaziladi:

OIV infeksiyasini yuqtirganlar bilan bir vaqtda davolash-profilaktika muassasalarida davolangan shaxslar (sanitariya-gigiyena, dezinfeksiya va sterillash rejimlarining buzilganligi aniqlangan taqdirda);

OIV infeksiyasini yuqtirgan onalardan tug'ilgan 18 oylik va undan katta yoshdagi bolalar; klinik ko'rsatkichlar mavjud bo'lganda, bolalar yoshidan qat'i nazar tekshiruvdan o'tkaziladi;

nikohlanayotgan shaxslar.

20. Majburiy tekshiruv

Quyidagilar OIV infeksiyasini yuqtirganligini aniqlash uchun majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi shart:

qon, qon preparatlari, sperma va boshqa biologik suyuqliklar, to'qimalar hamda a'zolar donorlari - har safar donorlik materialini olinganda;

OIV infeksiyasini yuqtirganlar va OITSGa chalingan bemorlar bilan jinsiy aloqada bo'lgan shaxslar.

21. Majburiy tartibda tekshirish

Tekshiriluvchining roziligi olinganidan qat'i nazar, vakolatli huquqni muhofaza qiluvchi organing belgilangan tartibda berilgan qarori asosida OIVga majburiy tartibda tekshirish.

OIVni aniqlash bo'yicha laboratoriya tekshiruvini uchun bir martalik shprits va igna yordamida kamida 5 ml miqdorida qon olinadi. Olingan qonni muzlatkichda 24 soatgacha, qon zardobini esa +4° Selsiydan yuqori bo'lmagan haroratda 5 sutkagacha saqlash mumkin. Tekshirish uchun qon yoki qon zardobi mavjud qoidalar va rejimlarga rioya qilingan holda, tibbiyot xodimi hamrohligida maxsus tibbiy transportda laboratoriyaga yetkaziladi. Laboratoriya tekshiruvini uchun yuborilayotgan zardobning miqdori 1,5 ml dan kam bo'lmasligi kerak.

3-bob. OIV/OITSGa chalingan bemorlarga tibbiy yordamni tashkil etish va ko'rsatish qoidalari

22. Hududiy poliklinika yuqumli kasalliklar shifokori va Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati hududiy markazining shifokor-epidemiologi OIVga test natijasi ijobiy chiqqan shaxslar to'g'risida ma'lumot olgach, testdan keyingi ixtiyoriy maxfiy maslahatni tashkil qiladi va bemorni dispanser ro'yxatiga qo'yadi.

23. OIV infeksiyasini yuqtirganlar va OITSGa chalinganlar, butun aholi kabi, Davlat davolash-profilaktika muassasalarida shoshilinch, rejali va boshqa barcha

turdagi ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam olish huquqiga egadir. Davolash xarajatlari Davlat byudjeti hisobidan qoplanadi.

24. OIV infeksiyasini yuqtirganlarni va OITSGa chalingan bemorlarni nogironlik bo'yicha ko'rikdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan tibbiy mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

25. OIV infeksiyasini yuqtirganlarni nogironlikka o'tkazish uchun zarur bo'lgan tibbiy hujjatlarni yuqumli kasalliklar xonalarining shifokor-infeksionistlari tayyorlaydi va OITS markazi mutaxassislarining roziligi bilan yashash joyi bo'yicha tumanlararo, shahar yoki viloyat TMEKga maxfiy komissiyaviy ko'rib chiqish uchun yuboradi.

4-bob. OIV infeksiyasiga tekshiruv natijalari to'g'risidagi sertifikatni berish qoidalari

26. Xorijga chiquvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga OIV infeksiyasiga tekshiruv natijalari to'g'risida sertifikat beriladi.

27. OIVga qon tahlili to'g'risidagi sertifikatni faqat quyidagilar berish huquqiga ega: O'ZR Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika OITS markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi OITS markazi, viloyatlar OITS markazlari va Toshkent shahar OITS markazi, chunki yuqorida ko'rsatilgan muassasalarda OIV infeksiyasi yuqtirganlar haqidagi ma'lumotlar bazasi hamda IFA va immunoblot (IB) uchun 4-avlod test tizimlari mavjud. Boshqa tibbiyot muassasalari tomonidan berilgan sertifikat haqiqiy hisoblanmaydi.

28. Qonning OIV infeksiyasiga tekshirilganligi to'g'risidagi sertifikat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan belgilangan shaklda beriladi. Sertifikat davlat tilida va xalqaro (ingliz) tilda to'ldirilib, unga tashkilot rahbarining imzosi va muhri qo'yiladi. Sertifikat 3 oy davomida amal qiladi. Ushbu muddat ichida sertifikat yo'qolgan taqdirda, OIVga tahlil o'tkazilmasdan uning dublikati beriladi.

29. Chet elga chiquvchi barcha shaxslarga va ushbu SanQvaMda nazarda tutilmagan shaxslarga sertifikat pullik asosda beriladi. Sertifikat narxi direktiv hujjatlar asosida belgilanadi va tasdiqlanadi. Sertifikat pul mablag'i preyskurant bo'yicha OITS markazining hisobvarag'iga to'liq o'tkazilgandan so'ng yoki naqd pul to'lovi asosida beriladi.

30. OIV infeksiyasiga tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlangan sanitariya me'yorlari va qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

#

31. OIVga tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha mazkur sanitariya qoidalari va me'yorlaridan tashqari chiqarilgan normativ hujjatlar ijro uchun haqiqiy emas deb hisoblanadi.